

O'ZBEKISTON-JANUBIY KOREYA SIYOSIY MULOQOTINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA DIPLOMATIYADAGI FAOLLASHUVI

Ilhomjonova Kamola Davron qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21716208>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston va Janubiy Koreya Respublikalari o'rtasidagi munosabatlar o'rnatilishining ilk bosqichlaridan boshlab hozirgi kungacha bo'lgan institutsional asoslari, ularning tarixiy ildizlari hamda bosqichma-bosqich rivojlanish dinamikasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda diplomatik munosabatlarning bugungi kungacha bo'lgan davrida davlat va hukumat rahbarlari saviyasidagi tashriflar, strategik sheriklik to'g'risidagi deklaratsiya va bayonotlar, shuningdek Markaziy Osiyo--Koreya Respublikasi hamkorlik forumi kabi ko'p tomonlama institutsional mexanizmlar faoliyati ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Strategik sheriklik, tashqi siyosat, diplomatik munosabatlar, Markaziy Osiyo--Koreya forumi, Yangi Shimoliy siyosat, K-Silk Road, ko'p tomonlama hamkorlik.

Abstract. This article examines the institutional foundations of relations between the Republic of Uzbekistan and South Korea from their initial stages to the present day. The institutional foundations, their historical roots, and the step-by-step dynamics of development from the initial stages of establishing relations between the Republics of Uzbekistan and South Korea are analyzed up to the present day. The study analyzes the institutional foundations, their historical roots, and the step-by-step dynamics of development from the initial stages of establishing relations between the Republic of Uzbekistan and the Republic of South Korea to the present day. The functioning of mechanisms is also examined.

Keywords: Strategic partnership, foreign policy, diplomatic relations, Central Asia--Republic of Korea Forum, New Northern Policy, K-Silk Road, multilateral cooperation.

Kirish

Hozirgi globallashib borayotgan xalqaro munosabatlar tizimida O'zbekiston Respublikasi ko'p vektorli siyosat yuritib, dunyoning rivojlangan davlatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik olib borishga intilmoqda. Ushbu siyosatning bir qismi sifatida Osiyo-Tinch okeani mintaqasining yetakchi davlatlari, jumladan Koreya Respublikasi bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Janubiy Koreyaning iqtisodiy taraqqiyot, texnologik innovatsiya va davlat boshqaruvi sohasidagi tajribasi uni Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega hamkorga aylantirdi. Shu o'rinda O'zbekistonning energetika, tabiiy resurslarga boyligi va qulay geografik hududda joylashganligi kabi sabablarni inobatga olgan holda u bilan yaxshi aloqalarni saqlab qolish Koreya uchun ham ustuvor diplomatik vazifa hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi, birinchidan, O'zbekiston-Koreya munosabatlarining so'nggi o'ttiz yil ichida ikki tomonlama darajadan ko'p tomonlama, institutsionallashtirilgan hamkorlik darajasiga o'tishi bilan; ikkinchidan, mintaqaviy va global geosiyosiy sharoitlarning o'zgarishi, xususan

Koreyaning “Yangi Shimoliy siyosati” hamda yaqinda e’lon qilingan “K-Silk Road” dasturi doirasida Markaziy Osiyoga bo’lgan qiziqishning ortishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada ma’lumotlarni tahlil qilishda bir nechta tahlil metodlaridan foydalanildi. Bunda, voqea va hodisalarning tarixiy ketma-ketligini tahlil qilishda tarixiy-xronologik, ikki davlat o’rtasida imzolangan memorandum va deklaratsiyalarni tahlil qilishda kontent-tahlil va siyosiy jarayonlarning bog’liqligini aniqlash uchun tizimli yondashuv metodlari qo’llanildi. Ushbu metodologik yondashuvlar maqolaning ilmiy asoslanganligini, tahliliy chuqurligini va real holatni yoritishda ishonchli bo’lishini ta’minladi. Har bir natija tegishli manba va dalillarga asoslanib yoritilgan bo’lib, faqat nazariy emas, amaliy tavsiyalarni ham ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar bazasini rasmiy hujjatlar (qo’shma deklaratsiyalar, bayonotlar, memorandumlar), ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklarining rasmiy ma’lumotlari, shuningdek xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy nashrlari tashkil etadi. Faktlarga asoslangan ma’lumotlar xronologik tartibda tizimlashtirilib, ularning institutsional-huquqiy tomonlari alohida tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

O’zbekiston va Markaziy Osiyo xalqlarining Koreya bilan munosabatlari tarixi qadimgi davrlardan boshlanadi, buni Samarqanddagi Afrosiyob muzeyi freskalarida (devoriy suratlarida) tasvirlangan koreyalik elchilar ham isbotlaydi. Uzoq muddatli almashinuv va o’zaro aloqalar davomida madaniyat va an’analarda juda ko’p narsa rivojlandi.

Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng, 1991-yil 30-dekabrda Koreya Respublikasi O’zbekiston mustaqilligini tan olgan Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi birinchi davlatlardan biri bo’ldi va 1992-yil yanvar oyida diplomatik munosabatlar o’rnatildi.¹ Shuningdek, 1995-yildan buyon Koreya Respublikasida O’zbekiston elchixonasi faoliyat yuritib kelmoqda.² Diplomatik munosabatlar o’rnatilishi bilan Respublikalar Prezidentlari 20 dan ortiq rasmiy tashrif bilan Koreya Respublikasi va O’zbekiston Respublikalarida bo’lishdi.

Shuningdek, parlamentlararo aloqalar, hukumatlar, vazirliklar, idoralar darajasidagi uchrashuvlar, shuningdek, tashqi ishlar vazirliklari o’rtasidagi siyosiy maslahatlashuvlar muntazam ravishda amalga oshirilmoqda.

O’zbekiston--Koreya munosabatlari savdo, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, gumanitar, transport, kommunikatsiya va boshqa sohalarda yo’lga qo’yilgan va faol rivojlanmoqda. Ikki tomonlama hamkorlikning huquqiy asosini respublikalar o’rtasidagi turli sohalardagi hamkorlikni tartibga soluvchi 200 dan ortiq hujjatlar tashkil etadi, ulardan eng muhimlari O’zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o’rtasidagi Strategik sheriklik to’g’risidagi qo’shma

¹Rakhimov, M. (2022). Uzbekistan and South Korea relations in the contexts of transregional and global perspectives. *Journal of Eurasian Studies*, 13(2), 200–211.

²Kumar, J. (2024). The political dynamics of South Korea-Uzbekistan relations since 1992. *EPRA International Journal of Economic and Business Review (JEER)*, 12(12), 125–129.

deklaratsiya (2006) hamda Strategik sheriklik munosabatlarini har tomonlama chuqurlashtirish to'g'risidagi qo'shma bayonot (2017) bo'ldi.³

Davlat rahbarlari ikki tomonlama hamkorlik masalalari va global masalalarni muhokama qilish uchun tashkillashtirilgan uchrashuvlar turli sohalarda o'zaro anglashuvni chuqurlashtirish va hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda hamda muhim shartnoma va hamkorlik memorandumlari imzolanishiga zamin yaratmoqda.⁴

O'zbekiston va Koreya Respublikasi turli xalqaro tashkilotlar va formatlar doirasida ham faol hamkorlik qilib kelmoqda. Bunday ko'p tomonlama muzokaralar mamlakatlarga global va mintaqaviy masalalarni hal etishda sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish, xalqaro maydonda o'z pozitsiyalarini mustahkamlash, tinchlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan tashabbuslarni birgalikda ilgari surish imkonini beriyapti.⁵

Prezident Pak Kin Xe 2014-yilda Toshkentga tashrif buyurgan bo'lsa, 2017-yil noyabr oyida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreyaga o'zining birinchi davlat tashrifini amalga oshirdi va u Prezident Mun Chje In hamda boshqa rasmiy shaxslar, shuningdek, BMTning sobiq Bosh kotibi Pan Gi Mun bilan uchrashdi. Shavkat Mirziyoyev ikki mamlakat iqtisodiy va moliyaviy tuzilmalari rahbarlari, yetakchi tadbirkorlari ishtirokida o'tkazilgan Janubiy Koreya--O'zbekiston biznes-forumida ishtirok etdi.⁶

2017-yilda tashkil etilgan Koreya-Markaziy Osiyo hamkorlik forumi Kotibiyati zamonaviy davrda barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari va xorijiy hamkor davlat ishtirokidagi birinchi va yagona qo'shma doimiy organga aylandi. Markaziy Osiyo Yevrosiyo hamkorligining geografik markazida ekanligini hisobga olsak, Yangi Shimoliy siyosatga e'tibor qaratish Koreya hukumati mintaqqa mamlakatlari bilan sheriklikni kengaytirishda davom etishini anglatadi.

2019-yil aprel oyida Koreya Prezidenti Mun Chje In O'zbekistonga davlat tashrifi bilan keldi va uchrashuvlar hamda muzokaralar davomida O'zbekiston--Koreya hamkorligining istiqbollari muhokama qilindi. Tomonlar O'zbekistonda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari yaratish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida qo'shma korxonalar tashkil etish, innovatsion va ijtimoiy sohalar uchun kadrlar tayyorlashga kelishib oldilar. Muzokaralar yakunida investitsiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish, erkin savdo bitimini tuzish, koinotni tinch maqsadlarda tadqiq qilish, fan, texnologiya va innovatsiyalar sohasidagi hamkorlik, sog'liqni saqlash sohasida O'zbekiston-Koreya hamkorlik markazini tashkil etish va boshqalarga oid qator ikki tomonlama hujjatlar imzolandi. Tashrif davomida jami qiymati 10 milliard AQSh dollaridan ortiq bo'lgan 64 ta hujjat imzolandi.⁷

³Rakhimov, M. (2022). Uzbekistan and South Korea relations in the contexts of transregional and global perspectives. *Journal of Eurasian Studies*, 13(2), 200–211.

⁴ O'zbekiston - Respublika Koreya: приверженность многовековым связям и укреплению особого стратегического партнерства (yuz.uz)

⁵ <https://dunyo.info/actual/uzbekistan-%E2%80%93-respublika-koreya-priverzhennost-mnogovekovym-svyazyam-i-ukrepleniye-osobogo-strategicheskogo-partnerstva>

⁶Rakhimov, M. (2022). Uzbekistan and South Korea relations in the contexts of transregional and global perspectives. *Journal of Eurasian Studies*, 13(2), 200–211.

⁷<http://uza.uz>, 2019

2019-yil 19-apreldagi sammitda “O‘zbekiston va Janubiy Koreya o‘rtasidagi alohida strategik sheriklik to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya”sidan tashqari har ikki mamlakat rahbariyati ostida yettita kelishuv va o‘zaro anglashuv memorandumlari (MOU) imzolandi, jumladan, o‘zaro investitsiyalarni rag‘batlantirish bo‘yicha “qayta ko‘rib chiqilgan investitsiyalarni kafolatlash to‘g‘risidagi bitim”, mahalliy kompaniyalar va ishchilarning soliq yukini kamaytirish uchun ikki tomonlama soliqqa tortishni oldini olish to‘g‘risidagi bitim hamda Koreya-O‘zbekiston FTA (Erkin savdo bitimi)ning haqiqiyligi bo‘yicha qo‘shma tadqiqot o‘tkazish to‘g‘risidagi memorandum.

Imzolash marosimidan so‘ng, ikki yetakchi qo‘shma press-relizda tashrifning asosiy yutuqlarini tushuntirdilar.⁸

2019-yil oktyabr oyida Qozog‘iston poytaxti Nur-Sultonda “Markaziy Osiyo -- Koreya Respublikasi” forumining 12-yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi, unda Janubiy Koreya va mintaqaning barcha beshta davlatidan kelgan delegatsiyalar ishtirok etdi. Forumda standartlashtirish, suv va energetika, yashil iqtisodiyot va IT texnologiyalari bo‘yicha alohida sessiyalar o‘tkazildi. Muhokama qilinayotgan masalalarning muhimligini ta’kidlab, ishtirokchilar Forumga a’zo barcha mamlakatlarning umumiy manfaatlarini aks ettiruvchi aniq loyihalarni amalga oshirish niyatini bildirdilar. Tadbir natijasida Forum Kotibiyatining Qo‘shma bayonoti va Ish rejasi qabul qilindi.⁹

2020-yilda oliy darajada ikkita telefon muloqoti bo‘lib o‘tdi, O‘zbekiston Prezidentining Shimoliy iqtisodiy hamkorlik xalqaro forumidagi ishtiroki tashkil etildi. 2020-yil noyabr oyida Janubiy Koreya va O‘zbekiston Seulda bo‘lib o‘tgan 13-Markaziy Osiyo-Janubiy Koreya hamkorlik forumida uchrashdilar. Forum davomida O‘zbekiston 2022-yilda Koreya Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 30 yilligi munosabati bilan “Koreya-Markaziy Osiyo formatidagi uzoq muddatli strategik sheriklikning dolzarbligi va muhimligi to‘g‘risida” maxsus qo‘shma bayonot qabul qilishni taklif qildi.

Koreya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi kelgusi hamkorlik aloqalarining rivojlanishi Koreya hukumatining Yangi Shimoliy siyosatida yangi ufqlarni ochishi va O‘zbekiston uchun yangi loyihalarni amalga oshirishda yaxshi imkoniyat yaratishi mumkin.¹⁰

2021-yil yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi Prezidentlarining onlayn sammiti bo‘lib o‘tdi. Sammit yakunlari bo‘yicha bir qator bitimlar imzolandi, xususan, o‘zaro asosda, Koreya Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda O‘zbekiston va Koreya o‘rtasida 2021-2023 yillarga mo‘ljallangan moliyaviy va texnik hamkorlikning yangi uch yillik dasturini ishlab chiqish va uning byudjetini 1 milliard dollargacha oshirish tashabbusi qollab-quvvatlandi.

O‘zbekiston va Koreya Respublikalari o‘rtasida aloqalar mustahkamlanishi uchun Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning 2021-yilda Janubiy Koreyaga rasmiy tashrif bilan bordilar.

⁸Korea JoongAng Daily (2022), “[Friends for decades] Uzbekistan's ambassador recalls milestones of 30th year relationship with Korea”, Korea JoongAng Daily, South Korea, 8 November, 2022.

⁹Rakhimov, M. (2022). Uzbekistan and South Korea relations in the contexts of transregional and global perspectives. *Journal of Eurasian Studies*, 13(2), 200–211.

¹⁰Usmanov, D. (2021, August 27). Political diplomatic relations between Korea and the Republic of Uzbekistan and new directions of cooperation. In *Institute for Eurasian Turkic Studies Conference Thesis Book* (p. 23).

Amalga oshirgan davlat tashrifi ikki xalq o'rtasidagi do'stona aloqalarni mustahkamlagan alohida strategik hamkorlikning yangi davri boshlanishini belgilab berdi. Ushbu davlat tashrifi davomida Shavkat Mirziyoyev va uning hamkasbi Mun Chje In "Alohida strategik sheriklikni" chuqurlashtirish bo'yicha Qo'shma bayonotni imzoladilar. Asosiy e'tibor o'zaro manfaatli hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish maqsadlariga erishishga qaratildi. O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligi batafsil muhokama qilindi. Ushbu tashrif davomida bir qancha ikki tomonlama kelishuvlar, jumladan ikki davlat Adliya vazirliklari o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yuvchi bitim imzolandi.¹¹

Yuqoridagi uchrashuvdan so'ng, 2021-yil noyabr oyida Markaziy Osiyo va Koreya Respublikasi hamkorlik forumi Tashqi ishlar vazirlarining 14-yig'ilishi doirasida 2021-yil 29-noyabrda Dushanbe shahrida "5 + 1" formatidagi birinchi Biznes-forum bo'lib o'tdi. Unda o'rta va uzoq muddatli istiqbolda hamkorlikning oltita istiqbolli yo'nalishi bo'yicha loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun 2022-yilga mo'ljallangan Harakatlar rejasi qabul qilindi. Ular transport va logistika, energetika, sanoatni modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilish, iqlim o'zgarishi va atrof-muhit, sog'liqni saqlash va tibbiyot, ta'lim, madaniyat va turizm kabi hamkorlik sohalarini qamrab oladi.¹²

2024-yil 4-noyabrda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo -- Koreya Respublikasi 17-hamkorlik forumi Janubiy Koreya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarda oldinga tashlangan katta qadam bo'ldi. Janubiy Koreya Tashqi ishlar vaziri raisligida o'tgan uchrashuvda Markaziy Osiyodan kelgan yuqori darajali delegatsiya qatnashdi. Tadbirda 300 dan ortiq kishi, jumladan hukumat rasmiylari, biznes yetakchilari va ekspertlar ishtirok etdi. Ushbu forum ikki hudud o'rtasidagi strategik munosabatlarni muhokama qilish va rivojlantirish maydoniga aylandi. Bu yilgi uchrashuv Janubiy Koreyaning Markaziy Osiyo bilan aloqalarni yaxshilashga qaratilgan keng qamrovli siyosiy rejasi -- "K-Silk Road" (Koreya Ipak yo'li) dasturi vaqtida yuz bergani tufayli alohida ahamiyat kasb etdi. Uchrashuvda forumning muhim loyihalarni yakunlash va keyingi yili Janubiy Koreyada bo'lib o'tadigan birinchi "Koreya -- Markaziy Osiyo" sammitiga tayyorgarlik ko'rishdagi roli haqida so'z bordi. Ushbu sammit strategik sheriklikni yanada mustahkamlash va ikki tomonlama hamkorlikni butunlay yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi munosabatlar so'nggi o'ttiz uch yil ichida izchil institutsionallashtirish jarayonini bosib o'tdi: 1992-yilda diplomatik munosabatlar o'rnatilishidan boshlab, 2006-yilgi Strategik sheriklik deklaratsiyasi, 2017-yilgi qo'shma bayonot va 2019-yilgi Alohida strategik sheriklik deklaratsiyasi orqali hamkorlik sifat jihatidan yangi bosqichlarga ko'tarildi. Davlat va hukumat rahbarlari darajasidagi muntazam tashriflar, shuningdek Markaziy Osiyo-Koreya Respublikasi hamkorlik forumi kabi ko'p tomonlama mexanizmlar ikki tomonlama aloqalarni institutsional jihatdan mustahkamlashda muhim o'rin tutmoqda.

¹¹MOFA, Janubiy Koreya, 2021.

¹²Tojikiston TIV, 2021.

Koreyaning “Yangi Shimoliy siyosati” va “K-Silk Road” dasturi doirasida Markaziy Osiyoga, jumladan O'zbekistonga bo'lgan qiziqishning ortib borishi, shuningdek birinchi “Koreya-Markaziy Osiyo” sammitiga tayyorgarlik ko'rilyotgani munosabatlarning yanada institutsionallashuvi va strategik ahamiyatining ortishidan dalolat beradi. Kelgusida ikki mamlakat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnik va gumanitar hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, shuningdek ko'p tomonlama institutsional mexanizmlar samaradorligini oshirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rakhimov, M. (2022). Uzbekistan and South Korea relations in the contexts of transregional and global perspectives. *Journal of Eurasian Studies*, 13(2), 200-211.
2. Kumar, J. (2024). The political dynamics of South Korea-Uzbekistan relations since 1992. *EPRA International Journal of Economic and Business Review (JEER)*, 12(12), 125-129.
3. Ўзбекистон – Республика Корея: приверженность многовековым связям и укреплению особого стратегического партнерства. uzuz.uz.
4. Ўзбекистон – Республика Корея: приверженность многовековым связям и укреплению особого стратегического партнерства. dunyo.info. URL: <https://dunyo.info/actual/uzbekistan-%E2%80%93-respublika-koreya-priverzhennost-mnogovekovym-svyazyam-i-ukrepleniye-osobogo-strategicheskogo-partnerstva>
5. O'zbekiston-Koreya: 64 ta hujjat imzolandi. *UzA*, 2019. <http://uza.uz>
6. Korea JoongAng Daily (2022). [Friends for decades] Uzbekistan's ambassador recalls milestones of 30th year relationship with Korea. *Korea JoongAng Daily*, South Korea, 8 November 2022.
7. Usmanov, D. (2021, August 27). Political diplomatic relations between Korea and the Republic of Uzbekistan and new directions of cooperation. *Institute for Eurasian Turkic Studies Conference Thesis Book*, p. 23.
8. Tojikiston Tashqi ishlar vazirligi rasmiy ma'lumotlari, 2021.
9. Janubiy Koreya Tashqi ishlar vazirligi (MOFA) rasmiy ma'lumotlari, 2021.